

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARNING TALAFFUZIGA QO'YILGAN TALABLAR

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi
1-kurs magistranti L.B.Irisova
E-mail: lobarislomova05@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari hamda o'qituvchilari talaffuzidagi muammolar, ularni bartaraf qilish, adabiy til me'yorlari, shevalar, o'quvchilarning diktant olish jarayonidagi muammolar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Universitet, adabiy til, sheva, Konstitutsiya, migratsiya, passport stoli, diktant, shoti, moyak, davlat tili.

Аннотация: В этой статье рассматриваются проблемы в произношении учащихся начальных классов и учителей, их устранение, нормы литературного языка, диалекты, проблемы в процессе получения диктанта учащимися.

Ключевые слова: Университет, литературный язык, диалект, Конституция, миграция, паспортный стол, диктант, лестница, яичко, государственный язык

This article discusses problems in the pronunciation of primary school students and teachers, their elimination, norms of the literary language, dialects, and problems in the process of students receiving dictations.

Keywords: University, literary language, dialect, Constitution, migration, passport desk, dictation, ladder, testicle, state language

*Xalqqa yetkaza olmassan bir ma'no
Gar talaffuzing erur bema'no*

So'z qudrati cheksiz, unda kata ma'no mujassam, qachonki, so'zni o'z o'rnida qo'llay olsak. Biz bir so'zni turli shevalarda talaffuzlarda ishlatamiz. Bu bizning so'z boyligimizdir. Darhaqiqat, yurtimizda qarluq, qirg'iz, qipchoq, o'g'uz sheva-lahchalari mavjud. Shevalarga to'xtaladigan bo'lsak, misol uchun, adabiy tildagi "narvon" so'zi Xorazmda "shoti", "tuxum" so'zi "moyak" deyilishini kuzatamiz. Bir so'zning bunday ko'rinishlari adabiyotda-she'riyat, hikoya, roman, qissalarda juda chiroyli manzaralar yaratish uchun asqotadi. Misol uchun, bir asarda qishloq hayotini ko'z oldimizga keltirishda o'sha hikoyada ishlatilgan obrazning ya'ni qishloqdan kelgan boboning gap so'zlari muallif tilidan shunday tasvirlanadi: "Jo'q bolam, hech vaqo jo'q, shu bo'yginang qoqindiq nevaramdan boshqa". Lekin bunday talaffuzlar cheklangan uslub va kasblar mavjud. Chunonchi, davlat tili – muayyan mamlakatda qonun chiqarish, ijroiya va sud hokimyatlarida ish yuritish uchun rasmiy belgilangan til odatda, ko'p millatli mamlakatlarida Hindiston, Kanada, Shvesariyada qaysi til yoki tillar rasmiy ekanligi konstitutsiyalarida belgilab qo'yilgan. Davlatlarning ko'pchiligida rasmiy til bilan davlat tili bir xildir. Faqat ayrim mamlakatlardagina rasmiy til davlat tili maqomidan farqlanadi.

O'zbekistonda sho'rolar hukumronligi davrida Davlat tili haqida umuman gapirish ham mumkin bo'lmagan, aksincha, o'zbek tilining ijtimoiy hayotda qo'llanilishi tobora cheklanib qolgandi. Jamiyatni qayta qurish ma'naviy poklanishni boshlab berdi. Uning natijasi o'laroq "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida" gi qonun 1989-yil 21-oktabrda qabul qilindi. Bu qonun o'zbek xalqi milliy ongining rivojlanishida, mamlakat mustaqilligi mustahkamlanishida, madaniy merosning tiklanishida muhim ro'l o'ynaydi. Mazkur qonun qoidalari O'zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yildi.

Konstitutsiyaning 4-moddasiga binoan O'zbekistonda davlat tili o'zbek tilidir. 1995-yil 22-dekabrda O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqidagi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishning huquqiy asoslari ushbu qonun va boshqa qonunlar bilan belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart – sharoit yaratildi hamda millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ularning rivojlanishi ta'minlanadi. Davlat tilini o'qitish bepul amalga oshiriladi (4-modda). Yuqoridagi qonundan kelib chiqadigan bo'lsak, ta'lim muassasalari ham adabiy til me'yorlariga amal qilishi shart. Hamma dunyoga kelgandan o'z ona tilini eshitadi, unga moslashadi va ma'lum vaqtlar o'tib inson zoti tilga kirganda o'z ona tilida gapira boshlaydi. Bola 1, 2, 3, 4.... 7 yoshga kiradi, 3 yoshida bog'chaga, 7 yoshida maktabga ilk qadamlarini qo'yadi. Bola ta'lim olish uchun borayotgan muassasasida o'z tarbiyachisi, ya'ni bog'cha opasi, birinchi o'qituvchisi nutqi hamda talaffuzini tinglaydi va shu nutq talaffuziga moslasha boshlaydi. Maktabda, yuqoridagi qonunlarga qaraydigan bo'lsak, o'qituvchi va o'quvchilar adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda ish yuritishlari lozim. Darhaqiqat, boshlang'ich sinf o'qituvchilariga, endigina maktab ostonasiga qadam qo'yayotgan, sevimli farzandlarini ota-onalari ishonch bilan topshiradilar. Tassavvur qiling, o'ttizta o'quvchi bitta sinfga birlashtirilgan desak, shu o'quvchilarning savodli bo'lishiga birgina boshlang'ich sinf o'qituvchisi nihoyatda mas'uldir. Agarda shuni e'tiborga oladigan bo'lsak, xo'sh, boshlang'ich sinf o'qituvchisiga qo'yilgan talablar mavjudmi? Albatta, hozirgi maqolamizda biz o'qituvchining talaffuziga qo'yilgan me'yoriy talablar haqida fikr yuritamiz va ushbu mavzu dolzarb masalalardan biri deb bilamiz. Men boshlang'ich ta'lim talabasi. Biz o'tgan yili boshlang'ich sinf o'qituvchilari mutaxassisligiga tayyorgarlik ko'ruvchi ikkinchi bosqich talabasi sifatida olib borilgan ikkinchi apreldan ikkinchi maygaacha, biroylik pedagogik amaliyotda bo'ldik. Ana shu amaliyotdan olgan taassurotlarimni ifoda etmoqchiman. Jizzax shahri maktablaridan biri ikkinchi sinf o'quvchilariga amaliyot o'tash uchun birlashtirildim va shu sinfga dars jarayonini kuzatish uchun kirdim. O'quvchilarni ko'rib o'z tanlagan kasbimga kundan kun mehrim oshdi, ammo bir narsa ko'nglimni xira qildi. Bu – o'qituvchining dars o'tish jarayonidagi qo'llayotgan talaffuzi edi. Sinf rahbari Jizzax shahrida tug'ilgan va shu yerda istiqomat qiladigan shaxs. O'qituvchining talaffuzi Jizzax shevasidir. Murabbiy o'quvchilariga Jizzax shevasida

dars o'tyapti, hattoki, o'quvchilar diktanti ham Jizzax shevasidir. Barchamizga ma'lumki, Jizzax shevasida "i" tovushi "ы", "o" tovushi "u", "e" tovushi "i" deb talaffuz qilinishi kuzatiladi. So'zlar oxirida "r" harfini tashlab ketish holatlari kuzatiladi. Misol uchun, kelingla, ketingla, olingla, yozila kabi. Endi o'quvchilarning diktant yozish jarayonini tasavvur qiling. Bir kuni o'qituvchi o'quvchilarga diktant olamiz dedi. Murabbiydan diktantni men olay deb so'radim va diktant olishni boshladim. Diktant olish jarayoni tugagandan so'ng, o'quvchilar daftarini yig'ib olib tekshira boshladim. Tekshirish jarayonida diktantdagi xatolardan juda qattiq ta'sirlandim. Diktantda quyidagicha xatolar bor edi: yo'l-yul, o'lka-ulka, bilim-bilm, ertak-irtak, kerak-kirak kabi yozib ketish holatlari kuzatilgan. Bu xatolardan qizil ruchka yig'lab yubordi, daftar qip-qizil lolaqizg'aldoq bo'lib ketdi. Xatolardan juda juda ajablandim, chunki bunday vaziyatga tushishimni kutmagandim. O'quvchilarning xatolari ko'p bo'lishiga o'zimni aybdor qila boshladim. Nahotki, matnni to'g'ri talaffuz qilolmadim. To'g'ri talaffuz qilolmaganim uchun shunday xatolar yuz berdimi? YO'Q! Men axir yo'l so'zini yul, o'lka so'zini ulka deb talaffuz qilganim yoq-ku. Shunday bo'lsa ham ancha vaqt o'zimni ayblab yurdim. Go'yoki, bilimi yo'q ongsiz talabadek. Oradan bir necha kun o'tdi. O'sha kuni sinf rahbari o'quvchilarga diktant olishini e'lon qildi. Bu men uchun ayni muddao deb, dars jarayonini diqqat bilan kuzata boshladim. O'qituvchi shunday dedi: "Qani bolalar, mavzuni nomini yozamiz. Bizning ulka". Sinf rahbarining gapini eshitib, bir kulgim keldi, bir jahlim chiqdi. Jahlim chiqqaniga sabab bu juda achinarli holat. Dars jarayoni tugagandan so'ng, o'qituvchiga o'zim olgan diktantlarni ko'rsatdim va sababini so'radim. Sinf rahbari bu holatga quyidagicha izoh berdi: "Hurmatli talaba, o'quvchilarim mening talaffuzimga o'rganib qolishgan, shuning uchun, siz olgan diktantda xatolar ko'p bo'lgan". Hayron bo'ldim va o'zimga o'zim sizning o'quvchilaringiz ulg'ayadi, oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishadi, davlat ishlarida ishlashadi. Shu bosqichlarda ham shevada ish yuritadimi? Sizga o'xshaganlarning kasriga ona tilimizga qanchalik putur yetmoqda, axir. Bu holat o'zbek tilimizning buzilib, yo'qolib ketishiga sabab bo'lmaydimi? Analhaq, har bir

viloyatning o'z shevasi bor, shevalar bizning boyligimiz. Lekin, ta'lim muassasalarida adabiy til me'yorlariga rioya qilinishi kerak. Zero

Tilingni bezagil turli ganj ila,

Adabiy tilinga ehtiyoj ila,

Shevang bo'lsin,

Lahjang bo'lsin mayliga

Lek ta'limda o'rgat

To'g'ri so'z bila

So'zda katta hikmat bor, gar so'zlasang bilib, bilib deganlaridek, bizlar ham o'z kasbimizga layoqatli bo'lishimiz kerak. Shu jumladan, birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov shunday deganlar.

“Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zboshimchalikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi, va aksincha, qayerda xushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql – idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi”.

Mana shunday holatlar bilan maktabni bitirgan o'quvchilar hozirda mening kursdoshlarim. Ularning yozuvlari talaffuzlari bir xil. O'sha kursdoshlarim “e” harfi va “i” harflari bilan boshlanadigan so'zlarni farqlay olishmaydi. Endi ularning kelajakdagi o'qituvchilik faoliyatini tasavvur qilib ko'ring. Ular ham men ko'rgan o'qituvchiga o'xshab dars o'tadilarmi? Doskaga ulka, yul, bulmoq; o'zining hujjat ishlarida o'quvchilar familyasini To'raqulovani–Turaqulova, O'mirzoqovani–Umirzoqova deb yozadimi? Shu kabi xatolar bilan maktabni bitirgan bir o'quvchi oliygohga o'qishga kirdi, lekin u yerda bunday xatolarga e'tibor qaratilarmikin. O'sha o'quvchi Universitetni ham shu tarzda bitirdi. Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limiga ishga kirdi. Barchamizga ma'lumki, u yerda shaxsini tasdiqlovchi hujjat tayyorlanadi. Pasport insonlarning eng muhim hujjatidir. Bunda shaxsning ismi, familyasi, tug'ilgan joyi, tavallud topgan yili, xullas, barcha ma'lumoti imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan bo'lishi kerak, ammo ba'zi insonlarning

ism familiyasi imloviy xatolar bilan yoziladi. Hattoki, mening qizlik familiyam ham shunday o'quvchilar tomonidan xato yozilgan. Pasportda Islomova emas Islamova deb qayd etilgan. Mana shunday nuqsonlar yana qanchadan qancha davlat ishida ishlovchi insonlarda uchraydi. Ular ham o'z ishlarida shunga o'xshagan xatolarni qilsa, bizning sof o'zbek tilimiz buzilib ketmaydimi? Bu maqolamni yozishimdan maqsad pedagog va bo'lajak pedagoglar to'g'ri talaffuz hamda qoidalarini chuqur o'rganib, ishlari faoliyati davomida ham qat'iy amal qilishsin. Maktablarda, umuman olganda, barcha davlat ishlarida xodimlarni ishga qabul qilishda to'g'ri yozish qoidalariga katta e'tibor qaratilsa, ayni muddao bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Karimov I.A., Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.- T.: Ma'naviyat, 2008. –B.
3. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –T.: O'zbekiston, 1998. –B.13-14.
4. Nargiza Erkaboyeva., Ma'ruzalar to'plami, 2024.
5. Azizxo'jayeva N. Pedagogik mahorat. T., 2006.